



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TA'LIMNI
RIVOJLANTIRISH RESPUBLIKA
ILMIY-METODIK MARKAZI



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI

PROYEKTIV METODIKALAR VA ULARNI QO'LLASH AMALIYOTI (Luiza Dyuss)

Shahzoda Bo'stonova

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti psixologi

Reja



Proyektiv metodikalarning nazariy asoslari, psixodiagnostikadagi o'рни va ahamiyati



Asosiy proyektiv metodikalar:
Luiza Dyuss testi, Rorshax testi, TAT (Tematik Apperseptiv Test), “Uy–daraxt–inson”, “Kaktus”, “Oilaviy rasm testi”



Proyektiv metodikalarning ilmiy asoslari, afzalliklari va cheklovlari.

Proyektiv metodikalarning nazariy asoslari, psixodiagnostikadagi o‘rni va ahamiyati

“Proyektiv metod” atamasi ilk bor L. Frank tomonidan 1939-yilda qo‘llangan. Hozirgi kunda ushbu metodlar keng tarqalgan bo‘lib, ular bo‘yicha 6000 dan ortiq ilmiy manbalar mavjud.

Proyektiv metodikalar maktab yoshidagi bolaning ichki his-tuyg‘ulari, fikrlari va ehtiyojlarini bevosita so‘z orqali emas, balki rasm, o‘yin, test materiallari orqali bilvosita aniqlashga xizmat qiladi. Bola ushbu obyektlarga o‘z ichki dunyosini “proyeksiya” qiladi.



Proyektiv metodikalarning maqsad va vazifalari

Proyektiv metodikalar maqsadi — bolaning emotsional holatini, ichki ziddiyatlarini, ijtimoiy va emotsional xususiyatlarini aniqlashdir.

Proyektiv metodikalarning vazifalari:

Bolaning ichki dunyosini ochish, uning muammolarini aniqlash.

Ijtimoiy muhitga moslashuvini baholash.

Psixologik yordam ko'rsatish uchun asos yaratish.

Bolaning rivojlanishidagi qiyinchiliklarni aniqlash va ularga qarshi choralar ko'rish.



Maktab ta'limida proyektiv metodikalarning muhim ahamiyati

Proyektiv metodikalar bolalarga kechinmalarni so'zsiz ifodalash imkonini beradi. O'yin va ijod orqali bola emotsiyalar, munosabatlar va qo'rquvlarni tabiiy namoyon qiladi. Bu metodlar nutqi va diqqati cheklangan bolalar uchun qulay bo'lib, yashirin muammolarni aniqlashga yordam beradi. Ishonchli natija uchun esa tajriba va boshqa baholash usullari bilan birgalikda qo'llash zarur.



Asosiy proyektiv metodikalar



Luiza Dyuss

kichik ertaklar orqali bolalardagi ichki ziddiyatlarni aniqlash.



Rorshax

siyoh dog'lari orqali shaxsiyatni aniqlash.



TAT

hikoya tuzish orqali emotsional holatni baholash.



Uy-daraxt-inson

rasm orqali shaxsiy xususiyatlarni o'rganish.



"Kaktus"

o'zaro munosabatlar va shaxsiy xususiyatlarni tahlil qilish.



Mening oilam

oilaviy munosabatlarni diagnostika qilish.

Luiza Dyuss testi

Ushbu test bolalar psixologi Luiza Dyuss tomonidan ishlab chiqilgan.

Maqsad: Qisqa ertaklar orqali bolalarning ichki kechinmalari va ziddiyatlarini aniqlash.

O'tkazish tartibi:

Bolaga qahramoni o'ziga o'xshash bo'lgan ertak aytiladi.

Har bir ertak savol bilan yakunlanadi.



Ertak-testlar va mazmuni:

“**Qush bolasi**” — ota-onaga bog'liqlik darajasi

“**Qo'zichoq**” — sutdan ajratilish jarayoni

“**Ota-ona to'yining yilligi**” — bolaning oiladagi o'rni

“**Qo'rquv**” — qo'rquv mavjudligi

“**Fil bolasi**” — jinsiy rivojlanish bilan bog'liq holatlar

“**Sayr**” — qarama-qarshi va bir jinsdagi ota-onaga munosabat

“**Yangilik**” — xavotir va ichki bezovtalik

“**Yomon tush**” — bolaning ichki muammolari va kechinmalari

Rorshax testi

Rorshax testi — shveysariyalik psixiatr German Rorshax tomonidan yaratilgan proyektiv test. Test siyoh dogʻlari asosida tuzilgan va dastlab shizofreniyani aniqlash uchun qoʻllangan.

Maqsad:

Bolalarning tasavvuri va fikrlashini aniqlash, noaniq tasvirlarni qanday qabul qilishini baholash.

Oʻtkazish tartibi:

Bolaga siyoh dogʻi koʻrsatiladi va “Bu nimaga oʻxshaydi?” deb soʻraladi.



Javoblar uch xil boʻladi:

1. Oʻxshashlik topa olmaydi.
2. Bitta obyektни koʻradi.
3. Bir nechta obyektни aniqlaydi.



TAT (Tematik Appersepsiya Testi) testi

Bolalar Appersepsiyasi Testi (TAT) — Leopold va Sonia Bellak tomonidan ishlab chiqilgan proyektiv metodika bo'lib, o'quvchilarning emotsional holati, ichki kechinmalari va shaxsiy xususiyatlarini aniqlashga xizmat qiladi. Test 10 ta oq-qora rasmdan iborat bo'lib, rasmlar orqali o'quvchilarning oila va tengdoshlari bilan munosabatlari, qo'rquv, xavotir va ichki ziddiyatlari baholanadi.

O'tkazilish tartibi: metodika har bir o'quvchi bilan alohida va qulay muhitda, rasmlar ketma-ketlikda ko'rsatilgan holda o'tkaziladi.



“Uy–daraxt–inson” testi

“Uy — Daraxt — Odam” testi — bolaning xulq-atvori va agressiyasini baholashga mo‘ljallangan proyektiv metodika.



O‘tkazish tartibi:

Bolaga qog‘oz va qalam beriladi. U navbat bilan uy, daraxt va odam rasmini chizadi. Chizishdan so‘ng bola bilan qisqa suhbat o‘tkaziladi.

“Kaktus” testi

Maktab yoshidagi o‘quvchilar o‘z ichki kechinmalarini har doim ham ochiq ifodalay olmaydilar. Shu sababli, ularning emotsional holatini bilvosita aniqlashda M.A. Panfilovning “Kaktus” proyektiv metodikasidan foydalanish maqsadga muvofiq.

O‘tkazilish tartibi: o‘quvchiga A4 qog‘oz va rangli qalamlar berilib, kaktus rasmini chizish so‘raladi.



“Mening oilam” testi

Testning maqsadi — oilaviy munosabatlarni diagnostika qilish. Psixologik amaliyotda u eng informativ testlardan biri hisoblanadi. Ota-onalar oiladagi muhitni ijobiy deb baholashi mumkin, ammo bola uni boshqacha qabul qilishi ehtimoli bor. Bolaning chizmasida uning psixologik holati, yashirin muammolari, oilaning har bir a’zosiga munosabati va oilani umumiy qabul qilishi aks etadi. Bola oilani qanday tasavvur qilayotganini bilish orqali unga samarali yordam berish va oiladagi muhitni yaxshilash mumkin.

O’tkazilish tartibi: Bolaga A4 formatdagi oq qog’oz, oddiy qalam va o’chiruvchi beriladi. Undan o’zini ham qo’shgan holda oilasini chizish so’raladi, shuningdek, istasa, chizmaga boshqa tafsilotlarni ham qo’shishi taklif qilinadi.



Proyektiv metodikalarning ilmiy asoslari ularning afzalliklari va cheklovlari

Proyektiv metodikalarning ilmiy asoslari bir nechta jihatlarni o'z ichiga oladi, jumladan:

Proyeksiya tamoyili

Proyeksiya texnikalari subyektning ichki psixik mazmunini tashqi ko'rinishga keltirishga asoslangan.

Yaxlit yondashuv

Ba'zi proyektiv psixodiagnostika metodikalarida yaxlit yondashuv ustunlik qiladi; uning g'oyasi shaxsni tizim sifatida yaxlit o'rganishdir, uning har bir elementi bir-biri bilan bog'liq va o'zaro bog'liqdir.



Noaniq stimullardan foydalanish

Siyoh dog'lari, tematik rasmlar, tugallanmagan jumlar, unli tovushlarning tushunarsiz takrorlanishi va boshqalar proyektiv stimullar bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Faoliyat nazariyasi

Maktab ta'limida proyektiv metodikalar faoliyat nazariyasiga ko'ra bolalarga dats jarayonlarini o'yin, tajriba va harakat orqali faol bilishini rag'batlantiradi.

Proyektiv metodikalarning afzalliklari

Bola psixikasining chuqur qatlamlarini ochib beradi

Proyektiv testlar bolaning ong osti jarayonlari, yashirin qo'rquvlar, ziddiyatlar, hissiy kechinmalarni aniqlash mumkin. Bunday ma'lumotlarni boshqa verbal metodlar orqali olish juda qiyin.

Ijtimoiy bosim kamligi

Testning o'yin yoki ijod ko'rinishida o'tishi natijalarni tabiiy va samimiy qiladi. Bola to'g'ri–noto'g'ri javob haqida o'ylamaydi.

Noverbal, ijodiy uslub

Rasm chizish, hikoya to'qish, tasvirlarni talqin qilish jarayoni bolaning tasavvurini, emotsional holatini va shaxsiy fazilatlarini noverbal tarzda ko'rsatadi.

Standard testlar berolmaydigan ma'lumotni beradi

Ba'zan savolnomalar yoki kuzatish metodlari bilan aniqlab bo'lmaydigan yashirin kechinmalar aynan proyektiv metodlar orqali yuzaga chiqadi.

Proyektiv metodikalarning cheklovlari

Natijalarni talqin qilish subyektiv bo'lishi mumkin

Proyektiv testlar interpretatsiyasi psixologning tajribasi va malakasiga juda bog'liq. Ikki mutaxassis bir xil rasmni turlicha talqin qilishi mumkin.

Ishonchlilik va validlik muammosi

Ilmiy tadqiqotlarda ko'plab proyektiv metodikalarning validligi (nimani o'lchashi) va ishonchliligi (barqaror natija berishi) boshqa testlarga qaraganda past deb baholanadi.

Noto'g'ri xulosa xavfi

Bola rasmda shunchaki fantaziya ishlatgan bo'lishi mumkin, lekin psixolog buni muammo sifatida talqin qilib yuborishi ehtimoli mavjud.

Madaniy omillar ta'siri

Ba'zi tasvirlar, mavzular yoki hikoyalar turli madaniyatlarda turlicha qabul qilinadi — bu esa talqin sifatiga ta'sir qiladi.

Proyektiv metodikalarning cheklovlari

Standardlashgan mezonlar yetishmasligi

Ko'pchilik proyektiv metodlar aniq statistika yoki normativ bazaga ega emas. Bu esa ishonchlilikni pasaytiradi.

Vaqt talabi


TAT, "Uy–daraxt–inson" kabi metodikalarning o'tkazilishi va tahlili uzoq davom etadi.

Chizish ko'nikmasi ta'siri

Bola yaxshi chiza olmasligi uning ichki dunyosi haqidagi tasavvurni noto'g'ri aks ettirishi mumkin.

Xulosa

Proyektiv metodikalar **bolalar psixodiagnostikasida eng samarali usullardan biri** bo'lib, ular bolaning emotsional holati, ichki ziddiyatlari, oilaviy munosabatlari, qo'rquvlari va shaxsiy xususiyatlarini chuqur tahlil qilishga imkon beradi.



Ammo bu metodlarni yagona diagnostik vosita sifatida emas, balki **kompleks baholash tizimining bir qismi** sifatida qo'llash eng to'g'ri yondashuvdir.

Proyektiv metodikalar — bu bolaning ichki dunyosiga kirib borish uchun kalitdir, ammo bu kalitdan to'g'ri foydalanish professional bilim va tajriba talab etadi.



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TA'LIMNI
RIVOJLANTIRISH RESPUBLIKA
ILMIY-METODIK MARKAZI



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



Ishtirokingiz uchun rahmat!